

IQTISODIY SIYOSAT ASOSLARI VA TARKIBI

Qoqon universiteti andijon filiali

Iqtisodiyot yonalishi 25_22

Yuldashboyev Malonbek

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy siyosat tushunchasi, uning asosiy mazmuni hamda tarkibiy qismlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Iqtisodiy siyosatning davlat tomonidan amalga oshirilish mexanizmlari, uning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va aholining turmush darajasini oshirishdagi o'rni yoritib beriladi. Shuningdek, fiskal, monetar, strukturaviy, ijtimoiy va tashqi iqtisodiy siyosat yo'nalishlarining o'zaro bog'liqligi hamda ularning milliy iqtisodiyot rivojiga ta'siri ochib beriladi. Maqola natijalari iqtisodiy siyosatni shakllantirish va takomillashtirish jarayonida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: iqtisodiy siyosat, davlat aralashuvi, fiskal siyosat, monetar siyosat, iqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish.

KIRISH

Iqtisodiy siyosat asoslari va tarkibi – bu davlatni iqtisodiyotga aqliy va maqsadli ta'sir ko'rsatish tizimi bo'lib, uzoq muddatli rivojlanishga erish bo'lib va iqtisodiyotda uchrashi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilishga qaratilgan. Iqtisodiy siyosat orqali davlat iqtisodiy jarayonlarni tartibga soladi. Bu sohadagi davlatning iqtisodiy vazifalaridan quyidagi ikki turini ajratib ko'rsatish mumkin:¹

1) bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon tug'diruvchi huquqiy asos va ijtimoiy muhitni ta'minlash;

2) raqobatni himoya qilish.

Iqtisodiy siyosatni mazmuni shundaki har qanday mamlakat iqtisodiy siyosatining uzoq muddatlaridan biri shubhasiz makro iqtisodiy barqarorlikni tamillashdan iboratdir. Ya'ni ko'plab davlatlar aholisini, xalqini, millatini boshqarish ularning roziligiga erishish uchun albatta davlat o'zini iqtisodiy rivojiga erishishni hohlaydi va iqtisodiy siyosatini olg'a suradi. Iqtisodiy ta'limotlari tarixi namoyondalari biri B.Seligmanning epigrafdagi keltirib o'tilgan fikri shuni anglatadiki, iqtisodiy o'sish nazariyalarini mualliflari, taniqli iqtisodchilar har jihatdan mukammal iqtisodiy o'sish nazariyasini yaratishga da'vo qilmagan bo'lsalarda, ular keng qamrovli iqtisodiy o'sish fenomenini tushuntirishga harakat qilganlar.² Bundan kelib chiqadiki ular ham o'z vatanini iqtisodiy tomondan rivojlantirishga intilishgan.

¹ Iqtisodiy siyosatga kirish. Guliston 2023 (10-bet)

² Iqtisodiy siyosatga kirish. Guliston 2023 (29-bet)

Iqtisodiy siyosat tarkibi bir nechta asosiy yo‘nalishdan iborat bo‘lib buni negizi iqtisodiy ta‘limotlar tarixiga taqaladi. Ya‘ni o‘tmishdagi iqtisodchilar tomonidan ommaga tadbiq etilgan qarashlar, ta‘limotlar va ko‘plab fikrlarga taqaladi. Misol uchun Fiksal siyosati davlatning soliq va byudjet orqali iqtisodiyotga ta‘sir qilgan (soliq stavkalari, davlat xarajatlari, byujet taqchilligi yoki profitsiti) orqali. Bundan ko‘rishimiz mumkinki Fiksalning maqsadi iqtisodiy faollikni tartibga solish bo‘lgan. Bundan tashqari monetar, strukturaviy, ijtimoiy va tashqi siyosatlar mavjud bo‘lib ularning asosiy maqsadlari inlyatsiyaning paaytirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ijtimoiy barqarorlik va milliy iqtisodiyotning global raqobatdoshligi. Iqtisodiy siyosatni ostida doimo davlatning manfaati boladi.

Asosiy qism

Iqtisodiy siyosat asoslari deganimizda biz tushunishimiz kerak bo‘lgan narsa shundaki, bu davlatning iqtisodiy jarayonlarga ongli va maqsadli ravishda ta‘sir ko‘rsatish tizimi bo‘lib, u milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlash hayolimizga kelishi kerak. Iqtisodiy siyosatning eng asosiy asoslari quyidagilardan iborat³: 1. Davlatning iqtisodiyotdagi roli (davlat bozor mexanizmlarini tartibga soladi, iqtisodiy muvozanatni saqlaydi va iqtisodiy jarayonlarga yo‘naltiruvchi ta‘sir ko‘rsatadi). 2. Aniq maqsad va vazifalarning mavjudligi (iqtisodiy siyosat iqtisodiy o‘sish, bandlikni oshirish, inflyatsiyaning nazorat qilish va aholi farovonligini yaxshilashga qaratilgan bo‘ladi). Ilmiy asoslanganlik (qabul qilinadigan qarorlar iqtisodiy nazariya, tahlil va statistik ma‘lumotlarga tayangan holda amalga oshiriladi). 3. Bozor mexanizmlari bilan uyg‘unlik (iqtisodiy siyosat erkin bozor qonunlariga zid bo‘lmasdan, ularni to‘ldiruvchi va samarali ishlashini ta‘minlovchi bo‘lishi lozim). 4. Barqarorlik va izchillik (siyosat choralarining uzluksizligi va barqarorligi iqtisodiy ishonchni kuchaytiradi). 5. Ijtimoiy yo‘naltirilganlik (aholining turmush darajasini oshirish, ijtimoiy adolatni ta‘minlash iqtisodiy siyosatning muhim asosi hisoblanadi). 6. Moslashuvchanlik (ichki va tashqi iqtisodiy o‘zgarishlarga tez va samarali javob berish qobiliyati). Ushbu asoslardan maqsad mamlakatni iqtisodiyotning barqaror va muvozanatli rivojlanishi ta‘minlash bo‘lib bundan ko‘zlangan maqsad iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, hamda aholi farovonligini oshirishdan iboratdir.

Yuqorida aytilganimizdek iqtisodiy siyosat bu davlatning iqtisodiy tomonlarni rivojlantirishga qaratiladi. Hammani o‘ziga hos dunyo qarashi va fikrlash doirasi bolgani kabi ushbu siyosat turiga qarshlar bolmagan deya olmaymiz. Bunga misol qilib iqtisodiy talimotlar tarixi darsligimizda keltirilgan Adam Smit iqtisodiy qarashlarini misol qiladigon bolsak uni fikricha “davlat iqtisodga kam aralashi kerak” degan goyalarini o‘qishimiz mumkin. Bundan tashqari David Rikardoni fikricha “davlatni

³ Xodiev B. *Milliy iqtisodiyot va iqtisodiy siyosat*. — Toshkent.

iqtisodga aralashuvi samadorlik pasaytiradi” degan fikrlari bor. Bundan ko‘rinadiki davlatning iqtisodiy siyosati doim ham foydali va samarali bolavermaydi.

Iqtisodiy siyosatning davlat tomonidan amalga oshirilish mexanizmlari deganda, davlatning iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatish uchun foydalanadigan aniq usullari va vositalari tushuniladi. Bular jumlasiga soliq va byudjet siyosati, pul-kredit siyosati, davlat investitsiyalari, subsidiyalar, narxlarni tartibga solish hamda huquqiy-me’yoriy choralar kiradi. Ushbu mexanizmlar orqali davlat iqtisodiy jarayonlarni boshqaradi va yo‘naltiradi.

Davlat olib borayotgan iqtisodiy siyosatning iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni shundaki, u inflyatsiyaning keskin oshib ketishining oldini oladi, ishsizlik darajasini nazorat qiladi va iqtisodiy inqirozlar ta’sirini yumshatishga xizmat qiladi. Barqaror iqtisodiyot esa aholining kelajakka bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Shuningdek, iqtisodiy siyosat iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirishda muhim ahamiyatga ega. Davlat ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish va innovatsiyalarni kengaytirish orqali iqtisodiy o‘rishga sharoit yaratadi. Natijada yangi ish o‘rinlari paydo bo‘ladi va ishlab chiqarish hajmi ortadi.

Iqtisodiy siyosatning aholining turmush darajasini oshirishdagi roli esa daromadlar o‘shishi, bandlikning ta’minlanishi, ijtimoiy himoya tizimining rivojlanishi va ta’lim hamda sog‘liqni saqlash sohalariga ajratiladigan mablag‘larning ko‘payishi orqali namoyon bo‘ladi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy siyosat davlat tomonidan iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishning muhim vositasi bo‘lib, u milliy iqtisodiyotning barqaror va izchil rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Fiskal, monetar, strukturaviy, ijtimoiy va tashqi iqtisodiy siyosat yo‘nalishlarining o‘zaro uyg‘unligi iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirish, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda aholining turmush darajasini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, iqtisodiy siyosatni ilmiy asoslangan holda shakllantirish va uni zamon talablari asosida takomillashtirib borish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Iqtisodiy siyosatga kirish. Guliston 2023 (10-bet)
2. Iqtisodiy siyosatga kirish. Guliston 2023 (29-bet)
3. Xodiev B. *Milliy iqtisodiyot va iqtisodiy siyosat*. — Toshkent.